



## MIGRANTLAR HUQUQLARINING XALQARO VA MILLIY HUQUQIY KAFOLATLARI: REAL HIMOYA YOKI QOG'OZDAGI QONUN.

**To'lqinova Visola Ulug'bek qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi

G-mail: visolatolqinova05@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20509406>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-may 2026 yil

Ma'qullandi: 15-may 2026 yil

Nashr qilindi: 31-may 2026 yil

#### KEY WORDS

inson huquqlari,  
migratsiya, muhojir, mehnat  
migratsiyasi, xalqaro tashkilotlar,  
konvensiya.

### ABSTRACT

*Mazkur maqola migrantlarning huquqlarini himoya qilish rostan ham xalqaro va milliy qonunchilik asosida himoya qilinadimi yoki yo'q degan nizoni tahlil qiladi. Shuningdek, bugungi kunda ko'plab migrantlar aynan qanday muammolarga duch kelayotganini ko'rib chiqib, yechimlar berishga harakat qilaman.*

***"Migrantlarning huquqlarini himoya qilish, faqat ularning xavfsizligini ta'minlash emas, balki ularning inson sifatida erkin yashash, adolat va tenglikka asoslangan muomalaga haqli ekanliklarini tan olishdir."***

***— BMT Inson Huquqlari Komissiyasi.***

### Kirish

Bugungi kunda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida davlatlar tomonidan ko'plab chora tadbirlar amalga oshirilib borilmoqda. Nafaqat davlatning ichki hududida, balki xalqaro ommaviy darajaga ko'tarilib BMT tashkilotining a'zo davlatlari tomonidan bu borada inson huquqlari buzilgan vaziyatlarga chora ko'rish bo'yicha maxsus yig'ilishlar tashkil qilinmoqda. Ushbu holatda migrantlar huquqlarini ham alohida tilga olsak bo'ladi. Ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash uchun davlatlar va xalqaro tashkilotlar turli xil to'xtam va yechimlarga kelib, hamkorlik qilishmoqda. **Migratsiya** - bu odamlarning turli sabablarga ko'ra yashash joyidan boshqa joyga ko'chishi. Odamlarning ma'lum bir hududdan tashqariga doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyiga ko'chib o'tishi bilan sodir bo'ladi. Aholining ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy, diniy, harbiy va boshqa sabablarga ko'ra migratsiyasi tashkiliy (davlat va boshqa ijtimoiy tuzilmalar ishtirokida) va uyushmagan (migrantlarning o'zlari tomonidan) bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtda migratsiyaning eng muhim sababi iqtisodiy sababdir. Migratsiya huquqi inson huquqlarining ajralmas qismi hisoblanishi bilan birga uzoq rivojlanish tarixiga ham ega. Qadimgi davrlarda u ko'proq fuqarolik maqomi, muqim yashash joyini tanlash, erkin harakatlanish tushunchalari sifatida ishlatilgan.

Migrantlar huquqlarini tan olish yo'lidagi birinchi qadam **1990-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya** qabul qilinganida qo'yildi. Mazkur hujjat migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqiy himoyasini ta'minlash, kamsitish va



ekspluatatsiyaga qarshi kurashishda muhim qadam bo'ldi. Migratsiya bo'yicha ko'pgina munozaralarda boshlang'ich nuqta odatda raqamlardir. Migratsiya kabi global ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq miqyosdagi o'zgarishlar, rivojlanayotgan tendentsiyalar va o'zgaruvchan demografik o'zgarishlarni tushunish biz yashayotgan o'zgaruvchan dunyoni tushunishga va kelajakni rejalashtirishga yordam beradi. Hozirgi global hisob-kitoblarga ko'ra, **2024-yilda** dunyoda **281 millionga** yaqin xalqaro muhojir bo'lgan, bu esa butun dunyo aholisining **3,6 foiziga** to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkichlar o'sishni davom etmoqda.

### Materiallar va metodlar

Ushbu tadqiqot yuridik adabiyotlar va ilmiy maqolalarning tahlili, shuningdek, tarixiy, huquqiy-nazariy va miqdoriy tadqiqot metodlari yordamida olib borildi. Shuningdek, WJP rule of law index, Jahon banki, The Globaleconomy, va boshqa xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va sharhlari, shuningdek boshqa maxsus tadqiqotlar ma'lumotlariga tayanadi.

### Muhokama

Bugungi kunda ko'plab davlatlar migrantlarning huquqlarini himoya qilish, ularning barcha kamsitishlarining oldini olish maqsadida o'zlarining milliy qonunchilik tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashitirib bormoqdalar. Migrantlarning huquqlari xalqaro va milliy qonunchilik tizimida oddiy qog'ozdagi so'zlarmi yoki amalda o'z natijasini ko'rsatmoqdami degan fikrlar butun insoniyatni o'yantirmoqda. Qadimgi dunyo tarixidan xabardor bo'lgan kishilar Yunoniston, Rimda fan va madaniyat taraqqiy etganini yaxshi biladi, albatta. O'sha davr boshlarida qariyb barcha bilimlar falsafa fani doirasida jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va sotsiomadaniy xususiyatlar rivojlanib kelgan edi. Inson jamiyat muhiti bilan ishtimoiylashuvi natijasida bilim va mehnat unumdorligiga bo'lgan intilishi muayyan davrga kelib, ma'naviy, iqtisodiy va sotsial nazariy bilimni tarixiy zaruratga aylantirdi. Buning natijasida aqliy va jismoniy mehnat taqsimotining dastlabki shakli vujudga keldi va fanning nazariy jihatlarini o'rganuvchi kishilar toifasi paydo bo'ldi<sup>1</sup>. Inson harakati – jamiyatni rivojlanishi va shaxs farovonligiga erishuvchi omil shakli bo'lib, moddiy va ma'naviy hayotning barcha shakillariga tegishli bo'lgan eng ommabop hususiyatlaridan biri hisoblanadi. Aynan insonlar harakati, ya'ni bir joydan ikkinchi bir xududga iqlim, yer unumdorligi omillari ta'sirida ko'chib o'tishi ijtimoiy hayot rivojining asosiy shartlaridan biri sifatida qaralgan.

Migratsiya, migrantlar va immigratsiya tushunchalariga ba'tafsil to'xtalib o'tadigan bo'lsek, "**Migratsiya**" atamasi lotincha "migratio" va "migro" so'zlaridan kelib chiqqan ("**ko'chib o'tyapman**" va "**ko'chib ketyapman**"). Ushbu atamaning keng qo'llanilishiga qaramay, uning yagona talqini yo'q. XMT migratsiyani "*odamlarning odatiy yashash joyidan xalqaro chegara orqali yoki davlat chegaralari ichida ko'chib o'tishi*" deb ta'riflaydi.<sup>2</sup> Xalqaro

<sup>1</sup> Q.Nazarov /Falsafa asoslari. — T., «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2005.B.27 -28

<sup>2</sup> Migratsiya sohasidagi asosiy atamalar (Key Migration Terms) [Kirish rejimi: [www.iom.int/key-migration-terms#Migration](http://www.iom.int/key-migration-terms#Migration)].

miqyosda "migrant" atamasining umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. XMT o'z maqsadlari uchun quyidagi ta'rifni ishlab chiqdi: *"Migrant – bu xalqaro huquqda ta'riflanmaydigan umumiy atama bo'lib, u mamlakat ichida yoki xalqaro chegara orqali vaqtinchalik yoki doimiy ravishda va turli sabablarga ko'ra odatiy yashash joyidan chiqib ketadigan shaxsning umumiy nokasbiy izohini aks ettiradi"*. Ushbu atama mehnat qiluvchi migrantlar kabi yuridik jihatdan aniq ta'riflangan bir qator yuridik insonlar toifasini; noqonuniy olib kiriladigan migrantlar kabi, aniq harakatlanish turlari qonun bilan belgilangan shaxslarni; shuningdek maqomi yoki harakatlanish vositalari xalqaro huquqda aniq belgilanmagan shaxslar, masalan, chet ellik talabalarni nazarda tutadi.<sup>3</sup>

**Odatda "migrant" atamasini ta'riflash uchun olimlar ikki yondashuvdan foydalanadi:**

- XMT "migrant" atamasini ko'chishning barcha shakllarini qamrab oladigan umumiy atama sifatida ko'rib chiqqan holda inklyuziv yondashuvga asoslanadi;
- rezidual yondashuv "migrant" atamasidan urush yoki ta'qiblardan qochadiganlarni (ya'ni qochqinlar va noiloj migrantlarning boshqa toifalarini) istisno qiladi.

Tadqiqotchi olimlardan **A.Smit XVIII asrda migratsiya to'g'risida o'zining "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari" («An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations»)**<sup>4</sup> asarida mehnat bozoridagi muttanosiblik va tengsizlik oqibati migratsiya jarayoni shakllanishiga sabab deb ko'rsatgan. **Adam Smitning bu boradagi fikri, «Hamma odamlarda, — bitta xohish, istak mavjud, ya'ni o'z yashash sharoitlarini va turmush tarzini yaxshilash kabi orzusi insonlarda hech qachon yo'qolmaydigan istak bo'lib qolaveradi» deydi**<sup>5</sup>.

Olimning fikriga qo'shilgan holda, umuman olganda migratsiyaning shakllanishidagi eng asosiy omillarda biri inson o'z turmush tarzini yaxshilash va o'zlarining orularidagi hayotni kechirish, o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida yaxshi daromad topish uchun boshqa mamlakatlarga ko'chib ketadilar.

**XIX asr oxirida mashhur olim E.G.Ravenshteyn tomonidan asoslangan ("The Laws of Migration") «Migratsiya qonunlari» nazariyasiga migratsiya qonunlarini kiritadi, unga ko'ra quyidagilar etib belgilanadi:**

1. Migrantlar asosan, o'z uylariga yaqinroq masofaga joylashishni xohlaydilar.
2. Migratsiya bosqichma-bosqich sodir bo'ladi.
3. Yirik savdo va sanoat markazlariga qaratilgan migratsiya uzoq vaqtni tashkil qiladi.
4. Migratsiya ko'rsatkichi emigratsiya ko'rsatkichiga tengdir.
5. Qishloq odamlariga qaraganda shaharliklarda migratsiya istagi ko'prog' kuzatiladi.
6. Mamlakatda oilasi bilan ko'chib ketish hollari kam kuzatiladi, bunga sabab migrantlarning aksariyatini yoshi kattalar tashkil qiladi<sup>6</sup>.

Yuqoridagi olimlarning fikrini tasdiqlagan holda, mantiqiy jihatdan o'ylab qarasaq ularning bergan fikrlari to'g'ri. Chunki insonlarning o'zga yurtlarga ketishlarida asosiy maqsad, yuqrida aytib o'tganimizdek yaxshi sharoitda yashash. Statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak migrantlarning soni yildan yilga sezilarli holatda o'sib bormoqda. Shuning uchun mamlakatlar xorijda ishlovchi o'z fuqarolarini huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida,

<sup>3</sup> XALQARO YONDASHUVLAR VA MINTAQAVIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. migration-in-ca-uz.

<sup>4</sup> <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qoli/>

<sup>5</sup> <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qoli/>

<sup>6</sup> <https://nic-pnb.ru/analytics/migratsionnye-protsessy-v-kontekste-geopolitiki/>

mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatib, o'zaro huquq va manfaatlar borasida bitimlar imzolamoqdalar.

### Xalqaro va milliy – huquqiy hujjatlar tahlili

Bugungi kunda migrantlar huquqlarini himoya qilishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uni ixtisoslashgan muassasalarining o'rni katta. Birlashgan Millatlar Tashkiloti xalqaro migratsiya bilan bog'liq bir qancha huquqiy hujjatlarga ega. Asosiy hujjatlar quyidagilardir:

- Qochqinlar maqomi to'g'risidagi 1951-yildagi Konvensiya;
- Qochoqlar maqomi to'g'risidagi 1967-yildagi Protokol;
- 1990-yildagi barcha mehnat muhojirlari va a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya;
- Ularning oilalari, 2000-yildagi odamlar, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish, bostirish va jazolash to'g'risidagi Protokol;
- 2000-yildagi migrantlarning quruqlik, dengiz va havo orqali kontrabandasiga qarshi Protokol.

Ushbu hujjatlar Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan qabul qilingan mehnat migrantlarining huquqlariga oid hujjatlar bilan birgalikda xalqaro migratsiya bo'yicha xalqaro normativ-huquqiy bazaning asosini tashkil etadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro muhojirlar va migratsiya bilan bog'liq huquqiy hujjatlarini ratifikatsiya qilish vaqt o'tishi bilan doimiy ravishda ortib borayotgan bo'lsa-da, notekisligicha qolmoqda. **1951-yildagi Qochqinlar to'g'risidagi konvensiya** va uning **1967- yildagi protokoli** mos ravishda **Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo 145 va 146 davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan**. Xuddi shunday, **171 davlat odam savdosiga qarshi kurash protokolini va 145 davlat muhojirlar kontrabandasini to'xtatishga qaratilgan protokolni ratifikatsiya qilgan**. Vaholanki, **1990-yildagi barcha mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyani faqat 51 davlat ratifikatsiya qilgan**. **2017-yil sentabr holatiga ko'ra, 37 a'zo davlat Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro migratsiya bilan bog'liq barcha beshta** huquqiy hujjatlarini ratifikatsiya qilgan, **13 a'zo davlat** esa tegishli hujjatlarning hech birini ratifikatsiya qilmagan.

Shuningdek, migrantlar huquqlari bo'yicha asosiy bo'lgan xalqaro hujjat bu **“Barcha mehnat-migrantlari va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha konvensiya” 93 ta moddadan** iborat. Ushbu konvensiya 1990-yil qabul qilinib, 2003-yilda kuchga kirgan va hozirgi kunda 46 ta davlat ushbu konvensiyani imzolagan.(O'zbekiston a'zo emas). Konvensiyaning 10 yilligi munosabati bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan **2000 yilda 18 dekabr – Xalqaro migrantlar kuni deb e'lon** qilindi.

Konvensiyaning asosiy maqsadi migrantlarning inson huquqlariga hurmatni kuchaytirishdan iborat. Migrantlar nafaqat ishchi, balki inson hamdir. Konvensiya muhojirlar uchun yangi huquqlarni yaratmaydi, balki muhojirlar va fuqarolar uchun teng munosabatda bo'lishini va bir xil mehnat sharoitlarini, shu jumladan vaqtinchalik ish sharoitida ham kafolat berishga qaratilgan. Konvensiya innovatsion xususiyatga ega, chunki u barcha muhojirlar minimal himoya darajasidan foydalanishlari kerakligi haqidagi asosiy tushunchaga tayanadi. Konvensiya muntazam muhojirlar tartibsiz immigrantlarga qaraganda ko'proq huquqlarga da'vo qilish huquqiga ega ekanligini tan oladi, ammo tartibsiz muhojirlar barcha insonlar kabi o'zlarining asosiy inson huquqlari hurmat qilinishini ko'rishlari kerakligini ta'kidlaydi.

Ushbu **Konvensiyaning 7-moddasida** mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolarining “jinsi, irqi, rangi, tili, dini yoki e'tiqodi, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib

chiqishi, millati, yoshi, iqtisodiy mavqei, mulki, mulki, irqi, rangi, e'tiqodi, oilaviy ahvol, tug'ilish yoki boshqa holatdan qat'i nazar" himoya qilinadi.<sup>7</sup>

Shuningdek, **konvensiyaning 11-moddasiga asosan,**

1. Hech bir mehnat migranti yoki uning oila a'zosi qullikda yoki qullikda saqlanishi mumkin emas.
2. Hech bir mehnat migranti yoki uning oila a'zosi majburiy yoki majburiy mehnatni amalga oshirishi shart emas.
3. Ushbu moddaning 2-bandi jinoyat uchun jazo sifatida og'ir mehnat bilan ozodlikdan mahrum qilish belgilanishi mumkin bo'lgan davlatlarda vakolatli sud tomonidan bunday jazo tayinlash uchun og'ir mehnatni bajarishga to'sqinlik qilmaydi.
4. Ushbu moddaning maqsadlari uchun «majburiy yoki majburiy mehnat» atamasi quyidagilarni o'z ichiga olmaydi:
  - a) ushbu moddaning 3-bandida nazarda tutilmagan har qanday ish yoki xizmat, odatda, sudning qonuniy qaroriga binoan hibsdan saqlanayotgan shaxs yoki bunday qamoqdan shartli ravishda ozod qilinganda;
  - b) jamiyat hayoti yoki farovonligiga tahdid soluvchi favqulodda yoki falokat holatlarida talab qilinadigan har qanday xizmat;
  - c) oddiy fuqarolik majburiyatlarining bir qismini tashkil etuvchi har qanday ish yoki xizmat, chunki u tegishli davlat fuqarolariga ham yuklanadi.

Yuqoridagilarga ko'ra bugungi kunda dolzarb muammo bo'lgan xorijda ishlovchi fuqarolarning huquqlari buzilishi, ularni millatlarga, ijimoiy mavqeiga ajratish holatlari juda ko'p uchramoqda. Konvensiyaning asosiy maqsadi qonuniy yoki hujjatsiz, noqonuniy holatda bo'lgan mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari uchun minimal huquqlarni kafolatlashdan iborat. Biroq, konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar soni hanuzgacha juda oz **20 ta (ishtirokchi davlatlar: Ozarbayjon, Beliz, Boliviya, Bosniya va Gersegovina, Burkina-Faso, Kabo-Verde, Kolumbiya, Ekvador, Misr, Salvador, Gana, Gvatemala, Gvineya, Qirg'iziston, Libiya Arab Jamahiriyasi, Mali, Meksika, Marokash, Filippin, Senegal, Seyshel orollari, Shri-Lanka, Tojikiston, Sharqiy Timor, Turkiya, Uganda, Urugvay).**

Yana bir muhim hujjat bu **Xalqaro Migratsiya Tashkilotining(XMT) Konstitutsiyasi. Ushbu hujjat 31 ta moddan iborat bo'lib, 1-moddasida ushbu xalqaro tashkilotning asosiy maqsad va vazifalari belgilab o'tilgan unga ko'ra,**

- a. Mavjud sharoitlari yetarli bo'lmagan yoki maxsus yordamsiz boshqa yo'l bilan harakatlana olmaydigan muhojirlarni tartibli migratsiya imkoniyatini taqdim etuvchi mamlakatlarga uyushgan holda o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;
- b. Qochqinlarni, ko'chirilganlarni va xalqaro migratsiya xizmatlariga muhtoj bo'lgan boshqa shaxslarni tashkilot va tegishli davlatlar, shu jumladan ularni qabul qilishni o'z zimmasiga olgan davlatlar o'rtasida kelishuvlar asosida o'tkazish bilan shug'ullanish;
- c. Manfaatdor davlatlarning iltimosiga binoan va ular bilan kelishilgan holda migratsiya xizmatlarini ishga olish, tanlash, qayta ishlash, til o'rgatish, yo'naltirish faoliyati, tibbiy ko'rikdan o'tkazish, joylashtirish, qabul qilish va integratsiyaga yordam beruvchi faoliyat,

<sup>7</sup> Kinnear, Karen L. (2011). Women in Developing Countries: A Reference Handbook. ABC-CLIO. p. 184. ISBN 9781598844252

migratsiya masalalari bo'yicha maslahat xizmatlari va Tashkilot maqsadlariga muvofiq boshqa yordam ko'rsatish;

d. Ixtiyoriy qaytish migratsiyasi, shu jumladan ixtiyoriy repatriatsiya bo'yicha davlatlar yoki boshqa manfaatdor xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda so'ragan shunga o'xshash xizmatlarni ko'rsatish;

e. Davlatlar, shuningdek, xalqaro va boshqa tashkilotlar o'rtasida fikr va tajriba almashish, hamkorlikni rag'batlantirish va xalqaro migratsiya masalalari bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish, shu jumladan amaliy yechimlarni ishlab chiqish maqsadida bunday masalalar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish uchun forum tashkil etish.

Xususan, O'zbekistonda migratsiya huquqi mustaqillik yillaridan boshlab rivojlanib, aholi migratsiyasi o'sa boshladi va ushbu jarayonni tartibga solish va mustahkamlashga qaratilgan institutlar vujudga keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli Farmoni** bilan tasdiqlangan **“2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha “Harakatlar strategiyasi”ni “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da** amalga oshirishga oid davlat dasturi” yurtimizda migratsiya huquqi rivojlanishining yangi davrini ochib bergan farmon bo'ldi. **2017-yil** O'zbekistonda migratsiya huquqi sohasida tub burilish va rivojlanish yili bo'ldi, jumladan, passport-viza, xorijga chiqish-kirish tizimi tubdan takomillashtirildi. Xorijdagi vatandoshlar uchun O'zbekistonga kelib-ketish, mamlakatda qolish, mehnat faoliyatini olib borish, investitsiya kiritish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish uchun **“Vatandosh” vizasi/pasporti**, iqtisodiyotimizga investitsiya olib kirmoqchi bo'lgan xorijiy davlatlar fuqarolari uchun maxsus investitsion viza joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmonini** imzoladi. Ushbu qarorga muvofiq, **2022-yil 1-iyundan Rossiya Federatsiyasi, Turkiya va Qozog'istonning tegishli 12 hududida, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi vakillik instituti** joriy qilinadi. guruh nogironligiga ega bo'lgan oila a'zolariga sanatoriylarga va kasallikning oldini olish muassasalariga bir martalik bepul yo'llanmalar taqdim etildi.

#### **2022 yilning 1-mayidan boshlab hokim yordamchilari tavsiyasiga binoan:**

- 2022 yilning 1 mayidan boshlab hokim yordamchilari tavsiyasiga binoan: mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan va “Yagona ijtimoiy himoya reestri” axborot tizimida ro'yxatga olingan fuqarolarning oilalariga 2 BHM miqdorida bir martalik moddiy yordam ko'rsatiladi;
- **“Yagona ijtimoiy himoya reestri”da** ro'yxatga olingan yoki **“Temir daftar”, “Ayollar daftari”** yoki **“Yoshlar daftari”ga** kiritilgan nogironligi bo'lgan shaxslarga, ya'ni mehnat migratsiyasiga chiqqan fuqarolarning oila a'zolariga dori-darmon, nogironlik aravachalari, eshitish apparatlari va ortopedik mahsulotlar uchun **5 BHM miqdorida** bir martalik moddiy yordam ajratiladi;
- mehnat migratsiyasida bo'lgan fuqarolarning pension yoshiga yetgan yoki **I va II** guruh nogironligiga ega bo'lgan oila a'zolariga sanatoriylarga va kasallikning oldini olish muassasalariga bir martalik bepul yo'llanmalar taqdim etiladi.

Hozirda O'zbekiston migratsiya masalalari bo'yicha umumiy shartnomalarda ishtirok etmayotganiga qaramay, migratsiya sohasida ikki tomonlama shartnomalar mavjud. **O'zbekiston Xalqaro migratsiya tashkilotining (XMT) 173-a'zosi bo'ldi.** Jenevada **2018-yil 27- noyabr kuni** bo'lib o'tgan **XMT Kengashining 109-sessiyasida** O'zbekistonning

XMTga a'zo davlat sifatida qo'shilishi haqidagi arizasi qo'llab-quvvatlandi. Umuman olganda bugungi kunda bizning mamlakatda xorijdagi fuqarolarimizning huquqlarini himoya qilishda chora tadbirlar ko'rilmoqda. Lekin bu takomillashtirishlar xorijdagi fuqarolarimizning huquqlarini to'liq darajada himoya qila olmayapti. So'nggi yillarda o'zbekistonlik migrantlar Rossiyadagi hayoti va mehnat faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muammolarga tez-tez duch kelishmoqda. Eng keng tarqalgan qiyinchiliklar orasida ishchilarning ekspluatatsiyasi, tez-tez o'tkaziladigan tekshiruvlar, maoshning to'lanmasligi, me'yoriy ish vaqti rejimining buzilishi va boshqa mehnat huquqlarining buzilishi mavjud. Bu holatlar migrantlar uchun qo'shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqarib, ularga munosib va xavfsiz yashash sharoitlarini yaratish imkoniyatidan mahrum etadi. Ijtimoiy tarmoqlar o'rqali ko'plab fuqarolarning millatlarga ajratilishi, ularni haqorat qilish holatidagi videolarga ko'zimiz ko'p tushmoqda. Demak, mavjud qonunlar va xalqaro hujjatlarning hammasi ham o'z kuchini amaliyotda ko'rsatyapti deya olmas ekanmiz.

### Ilmiy ish mavzusiga oid keyslar to'plami

Bugungi kunda mamlakat hududlarida ishlovchi mamlakat hududlarida ishlovchi mihojirlarning huquqlari jiddiy ravishda buzilmoqda. Mana shunday buzilish **Hirsi Jamaa va boshqalar, Italiyaga qarshi** doirasida muammoli vaziyat kelib chiqqan. Xirsi Jamaa va boshqalar Italiyaga qarshi ishida (**ariza № 27765/09**), **Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi oldida**, Sudning Katta palatasi **2012-yil fevral oyida** muhojirlarni Liviyaga qaytarish orqali ularning ishini o'rganmasdan, Italiya davlati muhojirlarni zarar ko'rish xavfi va zarariga duchor bo'lganligini aniqladi. Ish Liviyadan Italiyaga ketayotgan Somalidan Eritreyadan chiqqan 24 muhojirga tegishli bo'lib, ularni dengizda Italiya rasmiylari ushlab, Liviyaga qaytarib yuborgan.<sup>8</sup>

### VOQEALAR:

**Hirsi Jamaa va boshqalar Italiyaga qarshi ishi 2009-yilning** bahorida Liviyadan uch qayiqda Italiyaga yo'l olgan ikki yuzga yaqin muhojirlardan iborat kattaroq guruhning bir qismi bo'lgan o'n bir Somali fuqarosi va Eritreyadan kelgan o'n uch shaxsga tegishli edi. Malta dengiz qidiruv-qutqaruv hududi, **2009-yil 6-may**. Qayiqdarning yo'lovchilari Italiya harbiy kemalari tomonidan Liviyaning Tripoli shahriga yetkazilgan va u yerda mahalliy hokimiyatlarga topshirilgan. Ishning arizachilari Tripoliga qaytib ketayotganlarida Italiya rasmiylari ularni qayerga olib ketishayotgani haqida xabar bermaganini da'vo qilishgan. Arizachilarning so'zlariga ko'ra, yo'lovchilarning shaxsi ham Italiya rasmiylari tomonidan tekshirilmagan. Qo'lga olingan kemalarning yo'lovchilari Italiya harbiy kemalariga o'tkazilgan va Tripoliga qaytarilgan. Arizachilarning ta'kidlashicha, ushbu sayohat davomida Italiya rasmiylari ularga haqiqiy manzillari haqida xabar bermagan va ularni aniqlash uchun hech qanday choralar ko'rmagan. Ularning barcha shaxsiy buyumlari, jumladan, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar harbiy xizmatchilar tomonidan musodara qilingan. Ushbu holatda muhojirlarning huquqlariga putur yetkazilgan.

### SUD QARORI:

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining Buyuk palatasi 2012-yil sentabrda "**Hirsi Jamaa va boshqalar Italiyaga qarshi**" ishida bir nechta asoslar bo'yicha bir ovozdan xulosaga keldi.

<sup>8</sup> Inson huquqlari bo'yicha Evropa sudi. ["HIRSI JAMAA VA BOSHQALAR ISTI. ITALIYAGA qarshi"](#).EKIH. 2025-yil 10-aprelda olindi.

**Birinchi**dan, Buyuk palata arizachilar Yevropa Inson huquqlari konventsiyasining 1-moddasiga muvofiq Italiya yurisdiksiyasiga kirganligini aniqladi.

**Ikkinchi**dan, Buyuk palata konventsiyaning g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomalani taqiqlash to'g'risidagi 3-moddasida ikkita qoidabuzarlik sodir etilganligini aniqladi, chunki arizachilar Liviyada shafqatsiz munosabatda bo'lish va Eritreya va Somali mamlakatlariga repatriatsiya qilish xavfiga duchor bo'lishgan.

**Uchinchi**dan, 4-sonli bayonnomaning jamoaviy chiqarib yuborishni taqiqlash to'g'risidagi 4-moddasi buzilgan. Nihoyat, Buyuk palata, shuningdek, yuqorida qayd etilgan bayonnomaning 3 va 4-moddalari bilan birgalikda qabul qilinganda samarali himoya vositalaridan foydalanish huquqi to'g'risidagi 13-modda ham buzilganligini aniqladi.

Yuqorida aytib o'tilganlarga qo'shimcha ravishda, Italiya rasmiylari tegishli arizachilarning har biriga ma'naviy zarar uchun 15 000 evro to'lashlari va xarajatlar va xarajatlarni qoplash uchun arizachilarga birgalikda to'lanishi kerak bo'lgan 1600 evroga yaqin qo'shimcha miqdorni to'lashlari kerakligi belgilangan. Yakuniy hukm 2012-yil 23-fevralda Strasburgdagi AIHM Buyuk palatasida qabul qilingan. Hukmni Buyuk Britaniyadan Nikolas Bratsa raislidida bo'lgan Buyuk Palataning o'n etti nafar sudyasi chiqardi. Bir hakam, Pinto de Albuquerque ham xuddi shunday fikr bildirdi.<sup>9</sup>

Yana bir migrantlarning huquqlarining buzilishiga oid keyslardan biri bu – Manikavasagam Suresh Kanadaga qarshi. (Fuqarolik va Immigratsiya vaziri)

#### VOQEALAR:

Manikavasagam Suresh 1990-yilda o'zining vatani Shri-Lankadan Kanadaga kelgan va Tamil mustaqilligi uchun kurashda qatnashgani uchun Shri-Lankada hayoti xavf ostida qolganligi sababli Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar maqomi to'g'risidagi konventsiyasiga muvofiq qochqin sifatida qabul qilingan. 1995-yilda hukumat uning xavfsizligiga xavf tug'dirganligi sababli uning doimiy rezidentlik maqomini olish haqidagi arizasini rad etdi va uni deportatsiya qilishni buyurgan. Kanada Xavfsizlik razvedka xizmati (CSIS) Suresh Shri-Lankadagi terroristik guruh Tamil Elam ozodlik yo'lbarislari tarafdori va mablag' yig'uvchisi ekanligini da'vo qilgan.

Kanada Federal sudi deportatsiya haqidagi qarorni tasdiqlagan. Shundan so'ng Fuqarolik va immigratsiya vaziri uni **Immigratsiya to'g'risidagi qonunning 53(1)(b) bo'limiga** binoan Kanada xavfsizligi uchun xavfli deb e'lon qilgan va shuning uchun deportatsiya qilinishi kerak degan xulosa chiqargan. Suresh vazirga yozma va hujjatli dalillarni taqdim etish imkoniyati berilgan, biroq unga immigratsiya xizmati xodimining memorandumini nusxasi berilmagan va shuning uchun Sureshda merorondumni ko'rib chiqish va javob berish imkoniyatidan mahrum qilingan.

Javob bera olmagan uchun Suresh qarorni sudga ko'rib chiqish uchun murojaat qilgan. Arizasiga ko'ra Suresh quyidagilarni yozib o'tgan:

1. Vazirning qarori asossiz bo'lgan;
2. Immigratsiya qonunining tartiblari adolatsiz edi;
3. Immigratsiya qonuni Nizomning 7, 2 (b) va 2 (d) bo'limlarini buzdi.<sup>10</sup>

1. <sup>9</sup> Inson huquqlari bo'yicha Evropa sudi. ["HIRSI JAMAA VA BOSHQALAR ISTI. ITALIYAga qarshi".EKIH.](#)

<sup>10</sup> Suresh Kanadaga qarshi (Fuqarolik va Immigratsiya vaziri), 2002 SCC 1, [2002] 1 SCR 3, para. 121

**SUD QARORI:**

Sud birinchi navbatda **Nizomning 7-qismini** buzganlik to'g'risidagi da'voni ko'rib chiqdi. Sud qoidadagi "hamma" so'zlari qochqinlarni o'z ichiga olganligiga rozi bo'ldi. Bundan tashqari, qiynoqlar xavfi mavjud bo'lgan mamlakatga deportatsiya qilish qochqinni erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqidan mahrum etishi ta'kidladi.

Sud **53(1) bo'lim konstitutsiyaviy**, ammo qo'llashda konstitutsiyaga zid bo'lishi mumkin, deb topdi

Xulosa qilib aytganda, sud vazir tomonidan chiqarilgan deportatsiya to'g'risidagi buyruqni konstitutsiyaga **zid deb topadi**, ammo **Immigratsiya qonuni qoidalari** konstitutsiyaviydir.<sup>11</sup>

**Xulosa**

Migrantlar huquqlari buzilishi holatlari xalqaro huquq va davlatlararo munosabatlarda jiddiy muammo hisoblanadi. Ushbu ilmiy ishda ko'rib chiqilgan masalalar shuni ko'rsatadiki, davlatlar o'z fuqarolarining huquqlarini himoya qilishda mas'uliyatni o'z zimmlariga olishlari zarur. Xalqaro huquqda juda ko'p hujjatlar mihrantlarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Davlatlararo kelishuvlar imzolanmoqda. Lekin ularning hammasi ham amaliyotda o'z kuchini ko'rsatmoqda deyolmimiz. Masalan, kuni kecha ommaviy axborot vositalarida Rossiyaning Moskva shahridagi hammomlardan birida ishlash uchun ketgan Qir'g'iston fuqarolarining qiynoqqa solingan videolari keng tarqaldi. E'tibor bersak ko'pchilik xalqaro hujjatlarda fuqarolarning yoki migrantlarning asossiz qiynoqqa solinishi mumkin emas digan qoidalarga ko'zimiz ko'p tushadi. Lekin davlatlar ushbu qoidalarga rioya qilmasdan o'z bilganlaridan qolmayptilar. To'g'ri tan olish kerak davlatlar o'z fuqarolarini himoya qilish borasida harakatlar qilishmoqda, lekin ushbu qoidalarga rioya qilmayotgan mamlakatlar ham yo'g' emas.

Misol uchun, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan **2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan 6079-sonli "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi** farmonida migrantlarning huquqlarini himoya qilish borasida bir nechta vazifalar belgilab qo'yilgan. Ulardan eng asosiy bu **"Migratsiya modulini"** yaratish. Ushbu modul orqali xorijda ishlovchi fuqarolarimizni muammolarini online tarzda o'rganib, tezkorlik bilan yechim topishga va ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iborat.

Bizning mamlakat ushbu sohani rivojlantirishga juda jiddiy harakat qilmoqda, chunki deyarli har kuni davlatimiz rahbari turli mamlakatlar bilan shartnomalar, kelishuvlar tuzmoqdalar. Misol uchun, Rossiya bilan tuzilgan kelishuv. Ushrashuvda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida quyidagi gaplarini aytib o'tganlar: *"Biz mehnat migratsiyasi kabi nozik masalaga alohida e'tibor qaratdik, tizimli hamkorlikni tashkil etish, samarali mexanizmlarni joriy etish muhimligini ta'kidladik. Biz bu masalalarga jiddiy to'xtaldik. Vladimir Vladimirovich ushbu nozik masala bo'yicha takliflarimni qo'llab-quvvatlaganidan juda mamnunman. O'ylaymanki, biz hali bu masalada har ikki tomondan zaruriy tartibni yo'lga qo'yamiz"*, - deb aytib o'tganlar.

Xulosa qilib aytganda, qabul qilingan xalqaro va milliy huquqiy hujjatlarimizni ishlashi uchun avval ushbu hujjatlarni nazorat qiluvchi strategiya va mexanizmlarni ishlab chiqishimiz kerak. Shundagina biz adolatli va insonparvar hayot tarziga o'tamiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

<sup>11</sup> Suresh Kanadaga qarshi (Fuqarolik va immigratsiya vaziri), 2002 SCC 1, [2002] 1 SCR 3, para. 130

**MILLIY HUQUQIY ADABIYOTLAR:**

1. Q.Nazarov /Falsafa asoslari.— T., «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2005.
2. Inson huquqlari: darslik / A.R Mo'minov, M.A. Tillabayev; mas'ul muharrir A.X. Saidov. - 2 - nashr. T: Adolat, 2013. 504 bet (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 65 yilligiga bag'ishlanadi).

**XALQARO HUQUQIY ADABIYOTLAR**

3. Qaytish migratsiyasi. Xalqaro yondashuvlar va Markaziy Osiyoning mintaqaviy o'ziga xos xususiyatlari.240 bet. <https://publications.iom.int/>

**XALQARO HUQUQIY HUJJATLAR:**

4. Qochqinlar maqomi to'g'risidagi 1951-yildagi Konvensiya; <https://www.unhcr.org/>
5. Qochoqlar maqomi to'g'risidagi 1967-yildagi Protokol; <https://www.unhcr.org/>
6. 1990-yildagi barcha mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya; <https://www.unhcr.org/>
7. 2000-yildagi odamlar, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish, bostirish va jazolash to'g'risidagi Protokol;
8. 2000-yildagi migrantlarning quruqlik, dengiz va havo orqali kontrabandasiga qarshi Protokol;
9. Xalqaro Migartsiya Tashkilotining(XMT) Konstitutsiyasi; <https://www.iom.int/>

**MILLIY NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR:**

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi";
11. "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni;
12. 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan 6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi;

**XALQARO, XORIJIY, MILLIY MA'RUZA VA HISOBOTLAR:**

13. Migratsiya sohasidagi asosiy atamalar (Key Migration Terms) [Kirish rejimi: [www.iom.int/key-migration-terms#Migration](http://www.iom.int/key-migration-terms#Migration)];
14. Kinneer, Karen L. (2011). Women in Developing Countries: A Reference Handbook. ABC-CLIO. p. 184. ISBN 9781598844252 ;
15. Inson huquqlari bo'yicha Evropa sudi."[HIRSI JAMAA VA BOSHQALAR ISTI. ITALIYAga qarshi](#)".EKIH.2025-yil 10-aprelda olindi;
16. Suresh Kanadaga qarshi (Fuqarolik va Immigratsiya vaziri), 2002 SCC 1, [2002] 1 SCR 3;
17. MIGRATSIYA BO'YICHA XALQARO ME'YORIY-HUQUQIY BAZA. Maqola. <https://zenodo.org/>

**FOYDALANILGAN INTERNET SAHIFALARI**

18. <https://www.lex.uz/>
19. <https://www.iom.int/>

20. <https://www.uwed.uz/>
21. <https://zenodo.org/>
22. <https://uzbekistan.org.ua/>
23. <https://en.wikipedia.org/>
24. <https://decisions.scc-csc.ca/>
25. <https://library-tsul.uz/>
26. <https://www.un.org/>
27. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qoli/>
28. <https://nic-pnb.ru/analytics/migratsionnye-protsessy-v-kontekste-geopolitiki/>
29. <https://worldmigrationreport.iom.int/>.



INNOVATIVE  
ACADEMY